



PAPER

## O'ZBEK TILI SINTAKSISI ASOSCHILARI VA BU YO'NALISHDAGI ILMYI TADQIQOTLARNING TARAQQIYOTI

Sharipov Raufjon Elmurod o'g'li<sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup>Qo'qon davlat universiteti stajyor-tadqiqotchisi

\* sharipov5@mail.ru

### Abstract

Mazkur maqola o'zbek tilshunosligining eng muhim bo'limlaridan biri — sintaksisning ilmiy taraqqiyot yo'nalishlarini, bu sohaning shakllanishiga asos solgan yetuk olimlarning ilmiy faoliyatini tahlil qiladi. G'anijon Abdurahmonov, A.Rasulov, A.Sodiqov, A.Madvaliev kabi olimlarning ishlari asosida o'zbek tilidagi gap, so'z birikmalari, murakkab sintaktik konstruksiyalarni o'rganish bosqichlari yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy sintaksisning yutuqlari, hozirgi tadqiqot yo'nalishlari va dolzarb muammolari haqida ham so'z yuritiladi.

**Key words:** O'zbek tili, sintaksis, G'anijon Abdurahmonov, so'z birikmasi, gap tuzilmasi, murakkab gap, funksional sintaksis, zamonaviy tadqiqotlar.

### KIRISH

Tilshunoslikda sintaksis bo'limi tilning grammatik tuzilmasi, ya'ni so'z birikmalari va gaplarni tahlil qiladigan muhim bo'lim hisoblanadi. Aynan sintaktik tuzilmalar orqali tilning asosiy kommunikativ funksiyasi — fikrni ifodalash amalga oshadi. O'zbek tili sintaksisi ham uzoq ilmiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lib, bu sohaning shakllanishida bir qator yirik tilshunos olimlarning xizmatlari muhim ahamiyatga ega.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek tilshunosligida sintaksisning o'rni va shakllanish bosqichlari. O'zbek tilining sintaktik qurilishi dastlab darsliklar va uslubiy qo'llanmalarda umumiy yondashuvda bayon qilingan bo'lsa, keyinchalik bu soha ilmiy tadqiqot mavzusiga aylangan. Ayniqsa, G'anijon Abdurahmonov tomonidan yaratilgan sintaktik tizim o'zbek tili sintaksisini chuqur o'rganishga imkon berdi. Maqolada bu taraqqiyot bosqichlari, asosiy olimlar faoliyati va zamonaviy yondashuvlar

Compiled on: November 20, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

keng yoritiladi.

Sintaksis — tilshunoslikning eng murakkab va rivojlangan sohasi bo‘lib, grammatik birliklar o‘zaro qanday bog‘lanishini, fikrning qanday ifoda etilishini o‘rganadi. Morfologiya so‘z darajasida ishlasa, sintaksis so‘z birikmalari, gap va matn darajasida tahlil qiladi. Sintaksisning asosiy kategoriyalari:

- gap bo‘laklari;
- gapning turlari;
- murakkab gaplar;
- sintaktik munosabatlar kabi birliklar bo‘lib, bu elementlar orqali tilning mantiqiy, semantik va strukturaviy tomonlari aniqlanadi. O‘zbek tilida sintaksisga oid dastlabki qarashlar jadid adiblarining darsliklarida uchraydi. Munavvarqori, Abdulla Avloniy kabi jadid ma‘rifatchilar asarlarida oddiy gap tuzilmalari, so‘z tartibi, savol va inkor shakllari haqida qisqacha izohlar berilgan.

Sovet davrining 1930–50–yillarida bu sohada grammatik tadqiqotlar boshlangan bo‘lsa-da, ular ko‘proq amaliy darsliklar ko‘rinishida edi. Faqat 1960–yillardan boshlab akademik izlanishlar boshlangan.

#### Sintaksis sohasida faoliyat yuritgan tilshunos olimlar

Akademik G‘anijon Abdurahmonov (1926–1990) o‘zbek tilshunosligi tarixida chuqur iz qoldirgan bo‘lib, sintaksisga ilk nazariy asoslarni bergan, gapni tizimli ravishda tahlil qilgan tilshunos olimdir. Akademik G‘anijon Abdurahmonov o‘zbek tili sintaksisi masalalarini chuqur o‘rgangan va bu borada yirik ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan tilshunos sifatida e‘tirof etiladi. U murakkab gap sintaksisini chuqur tadqiq etib, qo‘shma gaplarning strukturaviy, semantik va kommunikativ xususiyatlarini keng yoritdi.

Ayniqsa, nutq birliklari va sintaktik konstruksiyalarning uslubiy funksiyasini o‘rganishda G‘.Abdurahmonovning ilmiy qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Uning “O‘zbek tilining hozirgi zamon sintaksisi”[1] nomli asari (1974) mustaqil ilmiy tadqiqot sifatida katta bahoga sazovor bo‘lgan. G‘.Abdurahmonov quyidagi sintaktik masalalarni tahlil qilgan:

- Gapning sintaktik strukturasi;
- Gap bo‘laklarining semantik va grammatik mezonlari;
- Gapning predikativlik belgisi;

- Murakkab gaplar va ularning tasnifi;
- Nutq sintaksisi va sintaktik konstruksiyalar.

Ushbu yondashuvlar asosida bugungi o‘zbek sintaksisi fan sifatida shakllandi. A. Rasulov o‘zining ilmiy izlanishlarida gap tuzilishi, sintaktik bo‘laklarning ichki aloqasi, intonatsiya va sintaktik tuzilma o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilgan[2]. Uning ishlari hozirgi zamon sintaksisi uchun muhim manba hisoblanadi.

A. Madvaliev — murakkab gaplar, ayniqsa shart, sabab, taqqoslash va natija ergash gaplar qurilishi bo‘yicha chuqur izlanishlar olib brogan[3]. A. Sodiqov esa gap bo‘laklari nazariyasi, predikatsiya, inkor va tasdiq gaplar haqida izchil tahlillar qilgan[4]. Bu olimlar sintaksisga grammatik, mantiqiy va uslubiy yondashuvlarni olib kirganlar.

#### NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Sovet davrida olib borilgan sintaktik tadqiqotlar. Sovet davrida sintaksis o‘rganilishi ko‘proq rus tili sintaksisi modeli asosida olib borilgan bo‘lsa-da, o‘zbek tili o‘ziga xosligi hisobga olinmagan. 1960–yillardan boshlab mustaqil tadqiqotlar paydo bo‘ldi. O‘zbekistonda mustaqil lingvistik maktablar shakllandi, ulardan biri — G‘. Abdurahmonov maktabi hisoblanadi. Bu davrda quyidagilar o‘rganildi:

- Gapning strukturaviy turlari;
- Ergash gaplarning ierarxiyasi;
- So‘z tartibi va unung stilistik funksiyalari;
- Gaplarning kommunikativ turlari.

Mustaqillikka erishilgandan so‘ng, o‘zbek tilshunosligida ham tilga bo‘lgan yondashuvlar o‘zgardi. Mustaqil tilshunoslik maktablari paydo bo‘ldi. Yangi yo‘nalishlar:

- Matn sintaksisi (gapdan matn darajasiga o‘tish);
- Korpus lingvistikasi asosidagi sintaktik tahlillar;
- Milliy shevalar va adabiy tilning sintaktik farqlari;
- Funksional sintaksis.

Bu yo‘nalishda G‘ofurov I., Madaliev O.[5], Boltaboev H.[6] kabi zamonaviy olimlar faoliyat olib bormoqda.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilining sun‘iy intellekt tizimlarida qo‘llanishi uchun sintaktik qurilmalarni avtomatik tahlil qilish dolzarb bo‘lib bormoqda.

Bunda:

- Sintaktik daraxtlar tuzish (treebank);
- Gap tahlilining algoritmik modellari;
- Matn birliklarini avtomatik aniqlash kabilar ustida tadqiqotlar olib borilmoqda[7].

Bu soha uchun asos — klassik sintaksis nazariyalari hisoblanadi.

Bugungi kunda quyidagi sintaktik muammolar ilmiy hal etilishga muhtoj:

- Gap va matn chegarasining aniqlanishi;
- Uslubiy va emotsional sintaktik qurilmalar;
- Ijtimoiy tarmoqlarda ishlatilayotgan yangi sintaksis shakllari;
- Korpusga asoslangan sintaktik modellar.

Bu masalalarni yechishda klassik va zamonaviy yondashuvlar uyg'unlashuvi talab etiladi. Shu sababdan sintaksis bilan shug'ullanuvchi har qanday tilshunos olim mazkur bo'limning tarixiy taraqqiyotini, bu sohada faoliyat olib brogan olimlarning ilmiy faoliyatini chuqur tahlil qilgan holda, bugungi zamonaviy yondashuvlarni soha rivoji uchun tatbiq qilishi kerak.

## XULOSA

O'zbek tili sintaksisi ko'p bosqichli tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Ushbu yo'nalishda G'anijon Abdurahmonov, I.Rasulov, A.Madvaliev, A.Sodiqov kabi olimlar fanning asoschilari hisoblanadi. Ularning ilmiy merosi zamonaviy tilshunoslik uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Sintaksis — nafaqat tilshunoslik, balki tilshunoslikning turli bo'limlari jumladan, uslubiyat, matnshunoslik, tarjimashunoslik, hatto sun'iy intellekt tadqiqotlarida ham markaziy o'ringa ega. Bugungi kunda bu soha dolzarb bo'lib qolmoqda va yangi tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda.

## References

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tilining hozirgi zamon sintaksisi. – Toshkent: O'qituvchi, 1974.
2. Rasulov A.A. Gapning tarkibiy tuzilishi. – Toshkent: Fan, 1965.
3. Madvaliev A. Murakkab gaplar sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1980.
4. Sodiqov A. O'zbek tilining gap bo'laklari. – Toshkent: Fan, 1982.

5. G'ofurov I., Madaliev O. Matn sintaksisi va funksional tahlil. – Toshkent: 2021.
6. Boltaboev H. Til va zamon: sintaksis yondashuvlar. – Samarqand: 2022.
7. Qurbonov O. Sun'iy intellekt va tilshunoslik. – Toshkent: 2023.